

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

BOSHLANG'ICH VAMAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI



DEFEKTOLOGIYA ASOSLARI
fanidan

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5111800 - Maktabgacha ta'lim

GULISTON – 2017

Ushbu o'quv-uslubiy majmua GulDU o'quv-metodik kengashining 2017 yil 26 avgust 1-sonli bayonnomasi qarori билан 5111800 - Maktabgacha ta'lim bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun tasdiqlangan «Defektologiya asoslari» tanlov fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Muallif: katta o'q. Umarova G

Taqrizchilar: p.f.n., dots. R.N. Ergashev

p.f.n., dots. A. A. Bolibekov

O'quv-uslubiy majmua GulDU o'quv-metodik kengashining 2017 yil 26 avgust 1-sonli yig'ilishida muhokama etildi va ma'qullandi.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Defektologiya asoslari) fani sillabusi.....	5
Nazariy materiallar (ma'ruzalar kursi).....	7
Amaliy mashg'ulotlari.....	32
Seminar mashg'ulotlari.....	37
Mustaqil ta'lim bo'yicha materiallar.....	38
Glossariy.....	39
Test savollari.....	40
Ilovalar:	
Fan dasturi.....	
Ishchi fan dasturi.....	
Ingliz va rus tilidagi xorijiy o'quv materiallari (elektron shaklda).....	
Taqdimotlar va multimediya vositalari (elektron shaklda).....	
Qo'shimcha didaktik materiallar.....	

K i r i s h

O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lishi, xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

“Defektologiya asoslari” fani bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini alohida yordamga muhtoj bolalarning differensial va integratsiyalashgan ta'lim-tarbiyasini to'g'ri tashkil etish masalalarini qamrab oladi.

Talabalar nazariyada olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar maxsus maktab-internatlaridagi amaliyotda takomillashtiradilar. Nazariy bilimlarini ilk bor hayotga tatbiq etish ko'nikmalari hosil qilinadi. Shuning uchun ushbu fan integratsiyalashgan ta'limni joriy etuvchi kadrlarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga egadir.

O'quv-uslubiy majmua quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Defektologiya asoslari fani sillabusi.

Nazariy materiallar (ma'ruzalar kursi)

Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi

Seminar mashg'ulotlar ishlanmasi

Talaba mustaqil ishlari bo'yicha materiallar (mustaqil ish topshiriqlari)

Glossariy.

Nazorat savollari va testlar.

Informatsion-uslubiy ta'minot.

Ilovalar:

1. Na'munaviy va ishchi o'quv dasturlar.
2. Ingliz va rus tilidagi xorijiy o'quv materiallari (elektron shaklda).
3. Taqdimotlar va multimediya vositalari (elektron shaklda)
4. Qo'shimcha didaktik materiallar

Mazkur o'quv-uslubiy majmua “Defektologiya asoslari” kursidan Vazirlikning 2017 yil 1 mart 107-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim o'quv rejalari fanlarining yangi o'quv majmualarini tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatma” asosida yaratilgan dastlabki o'quv-uslubiy majmualardan biri bo'lganligi sababli, unda ba'zi juz'iy kamchiliklar, munozarali qarashlar va atamalar uchrashi mumkin. Shunga ko'ra majmua haqidagi fikr-mulohazalarini bildirgan hamkasblariga muallif oldindan o'z minnatdorchiligini bildiradi

O'quv-uslubiy majmua zamonaviy pedtexnologiya talablariga mos ravishda ishlanib, unda o'quv maqsadlari, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.

Manzilimiz: Guliston shahri, IV mavze, Universitet,

« Boshlang'ich vamahtabgacha ta'lim metodikasi » kafedrası

1. «DEFEKTOLOGIYA ASOSLARI» FANINING SILLABUSI (2017- 2018 o'quv yili)

Fanning qisqacha tavsifi					
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Guliston davlat universiteti	Guliston sh. 4-mavze			
Kafedra:	Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi	“Pedagogika” fakulteti tarkibida			
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	110000 – “Pedagogika” ta'lim sohasi	5111800 – “ Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi			
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	Katta o'qituvchi Umarova Gulshod	e-mail:	Gulshod – @ mail.ru.		
Dars vaqti va joyi:	314 auditoriyalar	Kursning davomiyligi:	02.09.2017 - 16.06.2018		
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	Hanba kuni 08.00 dan 15.20 gacha				
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta'lim:	24
	Ma'ruza:	16	Amaliy Seminar		
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	“ Psixologiya”, “ Maxsus pedagogika”, “ Biologiya”.				
Fanning mazmuni					
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<ul style="list-style-type: none"> • Fanning maqsadi. Fanni o'qitishdan maqsad - metodika fanlarini o'qitish ishlarida, jumladan tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitish metodikasi kursini o'qitishni qayta ko'rib chiqib, hozirgi kun talabiga moslashtirish zarurati vujudga keldi. Bu ishlar bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash ishini takomillashtirishda, talabalarni o'qituvchilik kasbiga tayyorlashda muhim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishda zarur bo'lgan o'quv-tarbiyviy ishlarini tashkil qilishda katta yordam berishi lozim. • Fanning vazifalari boshlang'ich sinfda tabiatshunoslik o'qitish metodikasining fan sifatida o'z oldiga qo'ygan vazifalari. O'qitishning metodik sistemasi (tizimi) va uning turlari . Metodika fanining boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Pedagogika fanining boshqa bo'lmlari hamda yoshlar psixologiyasiga, boshlang'ich sinf metodikasiga bog'liqligi. Metodika fanlarining ilmiy-tadqiqot metodi (kuzatish, eksperiment va boshqalar). 				
Talabalar uchun talablar	<ul style="list-style-type: none"> - universitet o'quv binosi va auditoriyalarida talabaga xos kiyinish madaniyatiga rioya qilish (engil-elpi kiyinish, ortiqcha taqinchoqlar taqish qat'iy man etiladi); - o'qituvchiga, uning faniga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish; - universitet ichki tartib-intizom qoidalariga rioya qilish; - uyali telefonni o'quv binosi va dars davomida o'chirish; - berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish; - ko'chirmachilikka (plagiatlikka) yo'l qo'ymaslik; - darslarga to'liq (majburiy) qatnashish, qoldirilgan darslarni (Nizom talablariga ko'ra) o'z vaqtida qayta o'zlashtirish; - darslarga oldindan tayyorlanib kelish va unda faol ishtirok etish; - darsga kechikib kelmaslik, o'qituvchidan so'ng dars xonasiga kirish mumkin emas; - ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari uchun alohida daftar tutish va ularda mustaqil ish 				

	<p>mavzulari materiallarining mavjudligi va ularning baholangan bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - reyting jadvalida belgilangan (ON, JN) topshiriqlarni o'z vaqtida bajarib borish; - reyting ballaridan norozi bo'lgan taqdirda, ball e'lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	<p>Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha</p>

Fanda o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

T/r	Faning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	Soatlar				
		Jami	Ma'ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil t
1	Defektologiya fanining umumiy masalalari	10	4		2	4
2	Defektologiya fani, uning predmeti, maqsadi	4	2	2		
3	Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari	2	2			
4	Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar	2	2			
	Zaif ko'ruvchi bolalar maktab internatlarida ta'lim-tarbiya jarayoni	8		2	2	4
5	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar	2	2			
	Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayoni, uning o'ziga xosligi	4		2	2	
6	Aqli zaif bolalar, ularning darajalari, ta'rifi	4	2		2	
	Tug'ma hamda orttirilgan oligofreniya	2		2		
	Oligofren bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayoni	2		2		
7	Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalar	4	2	2		
8	Oligofren bolalar, ularning tavsifi	2			2	
9	Defektologiya fanining ta'rifi	4				4
10	Defektologiya fanining mustaqil fan sifatidagi ahamiyati	4				4
11	Maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xosligi..	4				4
12	Alohida yordamga muxtoj bolalar integratsiyasi.	2				2
13	Maxsus pedagogika fanidan differentsial va integratsiyalashgan ta'lim.	2				2
	Jami	62	16	12	10	24

Talabalar bilimni baholash tizimi:
«Defektologiya asoslari» kursi bo'yicha reyting jadvali
1-bosqich uchun

Umumiy soat:62 soat, ma'ruza - 16 soat, amaliy- 12, seminar-10 soat, mustaqil talim - 24 soat

**Talabaning fanni o'zlashtirish darajasi quyidagi
mezon asosida aniqlanadi**

1. O'quv materiallarini to'liq o'zlashtirgan, uning mazmun-mohiyatini mantiqan to'g'ri, ravon va xatosiz bayon eta olgan, unga misollar keltirib, amalda qo'llay olgan talabaga eng yuqori **5** baho qo'yiladi.
2. O'quv materiallarini to'liq o'zlashtirgan, uning mazmun-mohiyatini mantiqan to'g'ri va ravon ochib bergan, lekin uni amalda qo'llashda kichik xatolarga yo'l qo'ygan talabaga yaxshi **4** baho qo'yiladi
3. O'quv materiallarini qisman o'zlashtirgan, uning mazmun-mohiyatini ochib berish, uni amaliyotga joriy etishda o'qituvchi yoki boshqalarning yordamiga suyangan talabaga o'rta 3 baho qo'yiladi
4. O'quv materiallarini umuman o'zlashtirmagan, ularni amaliyotda qo'llay olmagan, biroq o'quv fani konspektini qisman rasmiylashtirgan, ko'p dars qoldirib, ularni qayta o'zlashtirgan talabaga quyi 2 baho qo'yiladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. T., 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent-"O'zbekiston"-2016.56 B
- 2.Sh.Mirziyoyev.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-"O'zbekiston"-2016.488 B
- 3.Sh.Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. Toshkent-"O'zbekiston"-2016.488 B
- 4.Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent-"O'zbekiston"-2017.104 B
- 5.2017-2021 yillarida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.O'zbekiston
6. David Carter. Literary Theory. Avocet Typeset, Chilton,Aylesbury, Bucks Printed England, 2006.
7. Renñ Wellek, Austin Warren. Theory of Literature. Penguin Books, 1993 - URL: <http://www.twirpx.com/files/literature/theory/>

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu.INTRANET.uz

MA'RUZALAR KURSI

1- MAVZU: DEFEKTOLOGIYA FANINING UMUMIY MASALALARI

Reja

- 1 Korreksion (maxsus) pedagogika asoslari
2. Korreksion pedagogikaning kategoriyalari

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Коррекция (maxsus) педагогика, anomal, Konventsiya, bolalarning psixofiziologik rivojlanishi, maxsus yordamga muhtoj bolalar, **Inklyuziv ta'lim ijtimoiy adabtatsiya, reabilitatsiya ishlari.**

1-savol bayoni

Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha defectus – nuqson, kamchilik, logos – fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.

Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:

Pedagogik lug'atda «korreksiya» tushunchasi (yunoncha «correctio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi¹.

Ana shu lug'atda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Nazorat savollari

1. Defektologiya fanini ta'riflab bering.
2. Bu fanning vazifalari nimadan iborat?
3. Korreksiya va kompensatsiya nima?
4. Defektologiya fanining rivojlanishi haqida gapirib bering.

¹ *Íñâîðîðöâââ Í.Â. Êîððâëöëííáÿ ïââââîñâëëâ è ñîâöëâëüíáÿ ïñëðîñîñâëÿ. Ñëîñââü. – Ìññââ, Ìââââîñâëëâ, 1999.*

2-savol bayoni

Rivojlangan mamlakatlarda "Maxsus ta'lim zaruriyati" nomli xujjatga javoban SVR —Reabilitatsiya tashkiloti tashkil etildi. Tashkilot nogironlar jamiyati, nogironlar oilalari, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ijtimoiy ta'minot vazirligi hamda kasaba uyushmalarining vakillarini o'z ichiga qamrab olgan. Uning asosiy maqsadi — jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni himoyalash, huquqlarini tiklash, vakolat berish, ta'limtarbiya tizimini shakllantirish, jamiyat va rahbariyat diqqatini bu narsaga jalb etishdir.

Korreksion pedagogikaning kategoriyalari. Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

1. Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar etkaziladi, psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

2. Anomal bolalarni tarbiyalash - korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdegilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

3. Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

4. Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion–tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion –tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

5. Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

6. Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas» – layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarning o'rnini to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli

kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

7. Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto» - moslashish) – anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlarini tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati etmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

8. Oilaviy tarbiya reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

Nazorat savollari

1. Anomal bolalar qaerda ta'lim olishlari kerak va nima uchun?
2. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari nima?
3. Aloxida yordamga muhtoj bolalar deb kimlarni aytamiz?
4. Inklyuziv ta'lim uchun nimalar kerak?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Bolaning sog'lom rivojlanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi to'g'risida gapiring.
2. Alohida yordamga muhtoj bolalarning kelib chiqish sabablarini bilasizmi?
3. Alohida yordamga muhtoj bolalarning turli toifalarga bo'linishi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T., 1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
2. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.
3. Filicheva T.B., Volkova L.S. Logopediya. T., «O'qituvchi». 1993.

2- MAVZU: DEFEKTOLOGIYA FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja

1. Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi
2. Defektologiya asoslari fanining rivojlanish tarixi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Inklyuziv ta'lim, ijtimoiy adabtatsiya, reabilitatsiya ishlari

1-savol bayoni

Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos - noto'g'ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti tarixi anomal bolalarga bo'lgan munosabatlarning uzoq vaqt davomida evolyutsion tarzda shakllanib kelganligini ko'rsatadi.

Antik davrda qadimgi Spartada bir necha yuz yilliklar davomida sog'lom tana, kuch, chidamlilik yuqori o'ringa qo'yilib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar yo'q qilinardi. Mazkur davrda yangi tug'ilgan chaqaloqlarni qabila boshliqlariga olib kelardilar, ular bolalarni sinchiklab ko'rib agarda ijtimoiy talablarga javob bera olsalar, ular ota-onalariga tarbiyalash uchun qaytarilar edi. Agarda bolada birorta nuqson topilsa uni qabila boshliqlari Tayget jarligiga tashlab yuborar edilar (eramizdan avvalgi IV-V asrlar).

Evropada o'rta asrlarda bolaning rivojlanishidagi har qanday nuqson qora, yovuz kuchlarning namoyon bo'lishi sifatida e'tirof etilib, psixik kasalliklari bo'lgan kishilar inkvizitsiya gulxanida yondirilganlar.

Uyg'onish davridan boshlab XIX asrning o'talarigacha Evropa defektologiya fani va amaliyotida bolaning aqliy rivojlanishidagi nuqsonlar muammosi borasidagi qarashlarning evolyutsion xarakterini anglash mumkin.

Ruhiiy kasallarga nisbatan insonparvarlik yondashuvi ilk bor frantsuz shifokori, psixiatri Filipp Pinel (1745-1826 yillar) tomonidan ilgari surilgan. U ruhiy kasalliklarni klassifikatsiyalagan (turlarga ajratgan).

Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarga nisbatan pedagogik yondashuv XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarni maxsus usullar yordamida o'qitish va tarbiyalash g'oyasini Iogan Genrix Pestalotsti (1746-1827 yillar) asoslagan bo'lsada, biroq, o'z davrida bu fikr qo'llab-quvvatlanmadi. I.G.Pestalotsti "aqli zaiflar" bilan ishlash tamoyilining mohiyatini asoslab berdi: bolaning imkoni etgan bilimlarni berish, didaktik materiallardan foydalanishda aqliy va jismoniy tarbiya uyg'unligiga erishish, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'liq holda tashkil etish.

Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalashga nisbatan tibbiy-pedagogik yondashuv asoschisi frantsuz psixiatri Jan Itar (1775-1838 yillar) hisoblanadi. U aqli zaifligi murakkab bo'lgan bolaga ta'lim va tarbiya berishga urindi. Garchi kutilgan natijaga erisha olmasada, bunday toifa bolalarni sezgi va motorika organlarini mashq qildirish yordamida rivojlantirish yo'lini ko'rsatib berdi.

Anatomik-fiziologik yondashuv rivojiga nemis psixiatri Emil Krepelin (1856-1926 yillar) katta hissa qo'shdi. U birinchi bo'lib "psixik rivojlanishdan ortda qolish" (PROQ (ZPR)) hamda "oligofreniya" (yunoncha olygos – kam va phren-aql) tushunchalarini qo'lladi.

Frantsuz psixologi Alfred Bine va vrach-psixiatr Tomas Simon test sinovlari metodini asoslaydilar. Shu bois ular intellektual zaiflikni o'rganishning psixometrik yo'nalishi asoschilari hisoblanadilar.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida XX asr boshiga kelib quyidagi uch asosiy yondashuv qaror topdi:

1. Tibbiy-klinik yondashuv aqli zaiflarning etimologiyasini bilish, intellektning buzilishiga sabab bo'lgan omillar, shuningdek, anatomik-fiziologik va genetik buzilishni o'rganish g'oyasini ilgari suradi.

2. Psixologik yondashuv psixikasi buzilgan bolalarning psixik faoliyati, emotsional holati hamda shaxsini o'rganishga yo'naltirilgan.

3. Pedagogik yondashuv intellekti buzilgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalashning pedagogik tamoyillari, metodlari, shuningdek, nuqsonlarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish g'oyasiga tayanadi.

Rossiya korreksion pedagogikasi tarixi Evropa defektologik fani bilan uzviy bog'liq.

Petr I, Ekaterina II lar anomal bolalar uchun davolash muassasalari, mehribonlik uylari va maxsus maktablarni barpo etish haqida farmon chiqarganlar.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida anomal bolalarni o'qitish va tarbiyalashni yo'lga qo'yuvchi ko'plab jamiyat hamda ijtimoiy tashkilotlar tashkil etildi.

Sobiq Sho'ro davrida bolalikni himoya qilish va bolalar nuqsonlari bilan bog'liq muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

1918 yili Sovnarkom tomonidan maxsus dekret qabul qilindi. Unda anomal bolalarga yordam berishda asosiy vazifa ularni alohida ajratish emas, balki ularni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu yilning Rossiyada birinchi maxsus ta'lim-tarbiya muassasasi (V.P.Kashenko uyi) tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasida korreksion pedagogika (defektologiya)ning rivojlanish tarixi Rossiya defektologiya fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni vaqtda u o'z xususiyatlariga ham ega. Bu xususiyatlar dinning o'zbek xalqi hayoti va turmushiga chuqur singganligi va o'zbek milliy mentaliteti bilan tavsiflanadi. O'zbek xalqi anomal bolalarga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lib, ularga rahmdillik, mehribonlik ko'rsatgan.

Ayni vaqtda respublikada anomal bolalar uchun maxsus o'quv muassasalari (ko'zi ojiz hamda kar bolalar uchun maktab-internatlar, aqli zaiflar uchun yordamchi maktab-internatlar) faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997 yil)ning 23-bandida psixik yoki jismoniy rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish va davolash maxsus (ixtisoslashtirilgan) ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilishi ta'kidlab o'tilgan.

XX asrning 60-70 yillarida respublikada korreksion pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda defektolog pedagoglarni tayyorlash yo'lida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1967 yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakultetida defektologiya bo'limi ochilib, ixtisoslashtirilgan muassasalar uchun pedagog-defektologlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda respublika olim defektologlari ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-rivojlantirish sinflarini tashkil etish, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko'rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o'rganmoqdalar.

Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari. Olib borilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning soni ko'p bo'lib, ayni vaqtda yanada oshib bormoqda.

«Anomaliya» tushunchasi yunonchadan tarjima qilinganda me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanishni anglatadi.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jismoniy yoki psixik kamchiliklar (nuqsonlar) bo'ladi, ular bolalarning umumiy rivojlanishida chetlanishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Nuqsonning xususiyati, paydo bo'lishiga qarab ayrim kamchiliklarni to'la yo'qotish, ayrimlarini esa tuzatish, uchinchi xillarining o'rni to'ldirish mumkin. Anomal bolaning rivojlanishida uni o'qitish va tarbiyalash asosiy muammo hisoblanadi.

Ayni vaqtda rivojlanishidagi chetlanishlarning klassifikatsiyasi bo'yicha yagona qarash mavjud emas.

M.A.Vlasova va M.S.Pevznerlar anomal bolalarning quyidagi guruhleri ko'rsatadilar:

1. Sensor xislati etishmaydigan (noraso) bolalar (eshitish, ko'rish, nutqi qobiliyatlari, tayanch-harakat apparat va sensomotorikasining funktsiyasi buzilgan).

2. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar.

3. Astenik yoki reaktiv holati hamda nizoli tashvishlanishga ega bo'lgan bolalar.

4. Psixopatik xulqli bolalar (xulqning emotsional buzilishi).

5. Aqli zaif bolalar (debillik, imbetsillik, idiotiya darajasidagi oligofrenlar).

6. Psixik kasallikning boshlang'ich ko'rinishi (shizofreniya, epilepsiya, isteriya va boshqalar) namoyon bo'ladigan bolalar.

O.N.Usanova anomal bolalarni quyidagi guruhlarga ajratishni taklif etadi¹:

1. Organik buzilishlar sababli rivojlanishida chetlanish bo'lgan bolalar.

2. Funktsional etuk emasligi sababli rivojlanishida kamchilik bo'lgan bolalar.

3. Psixik deprivatsiyalar asosida rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar.

Defektolog V.S.Raxmanova rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni quyidagicha guruhlarga ajratishni taklif etadi²:

1. Intellektual buzilishga ega bolalar (aqli zaif va psixik rivojlanishidan ortda qolgan bolalar).

2. Nutqi buzilgan bolalar.

3. Sensorli nuqsonlarga ega bolalar (ko'rish va eshitish qobiliyatlari buzilgan)

4. Tayanch-harakatli apparati buzilgan bolalar.

5. Rivojlanishida kompleks buzilish bo'lgan bolalar.

¹ Óñàííâà Í.Í. Îñëðëê ðëâîæëîéòëää íòàîîîëàððë áçëääí áíëàëàð. – Îñëââ, Îääââîâëêâ, 1995.

² Ðàðîíííââ Â.Ñ. Äâðâëðîéîîëäë ää ëîñîñâäëü àñîñëàððë. –Óîðëâîð, ðêëððâ-è, 1990.

Nazorat savollari

1. Korreksion pedagogikaning vazifasi nimadan iborat?
2. “Korreksiya”. “korreksion pedagogik faoliyat” tushunchalari qanday ma’noni anglatadi?
3. Anomal o’quvchilar bilan qanday korreksion ishlar olib boriladi?
4. Korreksion pedagogika (defektologiya) fanning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?

2-savol bayoni

Anomal o’quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo’nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo’lgan bolalarni o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo’nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o’rganish.
2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo’lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o’rganish.
3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.
4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo’lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta’sir ko’rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.
5. Ommaviy umumiy o’rta ta’lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo’lgan bolalarning umumiy va maxsus ta’limi mazmunini tahlil qilish.
6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo’nalishlarini aniqlash.
7. Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o’qituvchilarni tayyorlashda zarur o’quv-metodik bazasi yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo’qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo’naltirilgan bo’lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O’quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o’zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o’zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Nazorat savollari

1. Anomal o’quvchilar bilan qanday korreksion ishlar olib boriladi?
2. Korreksion pedagogika (defektologiya) fanning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari
2. Defektologiya fanining ta’rifi
3. Defektologiya fanining qanday tarmoqlarini bilasiz?

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida. T., «O’zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T., 1998.
3. Po’latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po’latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
2. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.
3. Filicheva T.B., Volkova L.S. Logopediya. T., “O’qituvchi”. 1993.

3- MAVZU: ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR TOIFALARI

Reja

1. Bolaning sog'lom rivojlanishi uchun shart-sharoitlar. Anomal bolalar toifalari
2. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari Bolalar anoomaliyasini oldini olish

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

1-savol bayoni

Bola shaxsining tarkib topishi hayotning birinchi kunidanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgani va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi. Kattalarning xatti-harakatlari ishlariga sodir bo'layotgan voqealarga bolaning berayotgan bahosi kishilarga bulgan munosabati bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir qiladi Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilgandan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy, yoki ruhiy nuqsonlar kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Defektologiya fanida anamol bolalarning turli xil toifalar ustida ish olib boriladi.

1. Eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar tug'ilishda kar, soqov zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar
2. Ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar)
3. Harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklar bo'lgan bolalar
4. Og'ir nutqiy nuqsoni bor bolalar
5. Mujassam, aralash nuqsonli (kar, ko'r, soqov ko'r va aqlan zaif bolalar)
6. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar
7. Oligrofen bolalar.

Anomal bolalar maxsus yordamga muhtoj bolalar. Ular maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi yoki o'qitilishi kerak. Yoki sog'lom tengdoshlari orasida ular uchun integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya tashkil etilishi zarur.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday anomal rivojlanish tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin

Tug'ma anomaliyalar ko'p jihatdan homilador onaning sog'lig'i va yashash sharoitiga bog'liq. Ona qornidagi homilaning rivojlanishiga infektsiya intoksikatsiya shikastlanish va boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning homiladorligi davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi o'z boshimchalik bilan turli dori-darmonlarni bilar bilmasdan iste'mol qilish bolaning anomal bo'lib qolishiga sabab bo'lishi mumkin

Turmushda orttirilgan anomaliyalar bola organzmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. Tug'ruq vaqtida miya shikastlanishi bolaning tug'ruq yo'llaridan uzoq o'tishi vakum ekstraktur yoki ombur solinishi bolaning kindigi o'ralib bo'g'ilib qolishi (asfiktsiya) va boshqalar anomal rivoshlanishiga olib kelinishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun shart-sharoitlar
2. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari
3. Oligofrenopedagogikaning maqsad va vazifalari
4. Oligofrenopedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

2-savol bayoni

Tug'ma anomaliyalar genetik ya'ni irsiy omillar ta'sirida ham bog'liq bo'lishi mumkin bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, eshitish va ko'rish analizatorlarining faoliyatinni buzilishi aqliy zaiflikning nasldan bolaga o'tishi ham uzatiladi. Ota-onalarining alkogalizm, nashavandlik, taksokomaniyalari bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin

Mamlakatimizda bolalar anomaliyasini oldini olishi yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda

O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, Sog'lom avlod uchun jamg'armasi, Ma'naviyat-ma'rifat markazi, Oila markazi, Aholini davolash profilaktikasi, Ekosan jamg'armalari tomonidan olib borilayotgan ishlarning barchasi shu sohada anchagina yutuqlarga erishishga yordam bermoqdalar.

Ruhiy rivojlanishdan ortda qolgan bolalar. Bu kasallikning yuzaga kelish sababi bolalarning bilish faoliyati markazi markaziy nerv sistemasidagi moddalar almashinuvi buzilishidan kelib chiqqan yengil patologik o'zgarishlar vaqtinchalik buzilgan bo'ladi.

Bolaning juda yoshligidan 3 yoshigacha turli kasalliklar bilan og'rishi masalan, meningit, meningoensefalit, otit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham anomal rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Kimlarni anomal bolalar deb ataymiz?
2. Anomal bolalarning qanday toifalari mavjud?
3. Aloxida yordamga muhtoj bolalar deb kimlarni aytamiz?
4. Inklyuziv ta'lim uchun nimalar kerak?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Bolaning sog'lom rivojlanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi to'g'risida gapiring.
2. Alohida yordamga muhtoj bolalarning kelib chiqish sabablarini bilasizmi?
3. Alohida yordamga muhtoj bolalarning turli toifalarga bo'linishi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T., 1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
2. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.
3. Filicheva T.B., Volkova L.S. Logopediya. T., "O'qituvchi". 1993.

4- MAB3Y: |KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR

Reja

1. Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar guruhlari.
2. Ko'rish nuqsonlarining kelib chiqish sabablari.
3. Ko'zi ojiz bolalarning tavsifnomasi
4. Ko'zi ojiz bolalar uchun tashkil qilingan ta'lim-tarbiya muassasalari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Tiflopedagogika, Zaif ko'ruvchi bolalar, Orttirilgan ko'rish anomaliyalari

1-savol bayoni

Ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Ko'rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlari. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflopedagogika shug'ullanadi (yunoncha «typhlos» – ko'r) – korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko'rish - ko'rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko'rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Bolaning ko'rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bolalarda ko'rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qorinida rivojlanayotganda ko'rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og'ir kasalliklar bilan og'rishi va hokazo omillardan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma ko'r bo'lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko'rish nuqsonlarining yuzaga kelishida nasliylik ham ko'zga tashlanadi.

Orttirilgan ko'rlik odatda ko'rish organlari – to'r pardasi, shoh parda yoki markaziy nerv tizimining kasallanishi (meningit, miya shishi, meningoentsifalit), organizmning umumiy kasallanishidan keyingi asoratlari (kor, gripp, skorlatina), shuningdek, miya yoki ko'zning jarohatli shikastlanishi (boshi yaralanishi, shikastlanishi) oqibatida bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilgan bolalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Ko'r tug'ilganlar.
2. Erta ko'r bo'lib qolganlar.
3. Uch yoshidan keyingi ko'r bo'lib qolganlar.

Ommaviy maktablarda, ta'lim olganda yomon ko'ruvchi bola jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Idrok etishning aniq emasligi, sekinligi, torligi kabi xususiyatlar predmetlarni tanib olish, ularning shaklini ajratish, o'ziga xos belgilarini bilib olishda ma'lum qiyinchiliklariga olib keladi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o'qish texnikasi egallab olish, o'qilganlarning mazmunini tushunishga halaqit beradi. Oddiy maktabda yomon ko'ruvchi bolalar doskada nima yozilganligini ko'rmaydilar, qarab bajariladigan ishlarni tashkil etishda yomon ko'radigan bolalar tez charchaydilar, bu ularning ish qobiliyatlarini pasaytiradi. Pedagoglarning oldidagi eng muhim vazifa - yomon ko'radigan bolani o'z vaqtida aniqlash, unga maxsus ta'lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun PMPKga yuborishdan iborat. Yomon ko'radigan bolalarni o'qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korreksion) maktablarda amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Tiflopedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
2. Ko'rish nuqsonlarining kelib chiqish sabablari
3. Korreksiya va kompensatsiya nima?
4. Tiflopedagogikada bolalar guruhlari

2-savol bayoni

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish va tarbiyalash. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan tiflopedagogika (yunoncha «typhlos» – ko'r) – korreksion pedagogika (defektologiya)ning yana bir sohasi shug'ullanadi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ish olib borayotgan o'qituvchi korreksion ishlarning o'ziga xos jihatlari bilishi zarur.

Refraksiyasi anomaliyalı bolalar tuzatuvchi ko'zoynak taqishlari kerak. Lekin ko'zoynak taqishda bolalar pedagogning ularga diqqat bilan munosabatda bo'lishlariga muhtojlik sezadilar. Maktabda va uyda o'quv ishlarini bajarishda sanitar-gigienik talablarga amal qilish lozim. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola uchun ish o'rni to'g'ri va etarlicha yoritilgan bo'lishi kerak. Bunday bola deraza yonidagi birinchi yoki ikkinchi qatorga o'tkazilishi kerak. Yaqinni ko'radigan bola ham doskaga yaqinroq birinchi yoki ikkinchi partaga o'tkazilishi zarur. Uzoqni ko'radigan bola esa, aksincha, doskadan uzoqroqqa oxirgi partaga o'tkazilishi talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchining doska, jadval va xaritada o'quv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Anomal refleksiya bolalarda ko'zi charchashi ko'p kuzatiladi. Shuning uchun dars paytida ularga ko'rish ishlarini boshqa turdagi ishlar uyg'unlashtirib berishi zarur. Anomal refleksiya bola 10-15 minut davomida intensiv ko'rish ishlarini bajargandan keyin bir necha minut uzoqqa (doska yoki derazaga) qarashi kerak, bu ko'rish charchog'ining bartaraf etilishiga yordam beradi.

Ko'rish qobiliyati ancha og'ir bo'lgan – ko'r va yomon ko'radigan bolalarni o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Ba'zan ko'rish qobiliyati og'ir buzilgan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablariga qabul qilinadilar. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zaruriyati yuzaga keladi.

O'z sinflarida og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan bola bo'lgan o'qituvchilar bolaga differentsial yondashuv asosida munosabatda bo'lishlari zarur. Buning uchun sinfdagi o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi, sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolaning ish o'rni esa ko'shimcha yoritilgan bo'lishi kerak. O'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Uning nutqi aniq, tushunarli, ifodali bo'lishi zarur. O'qituvchi o'zining har bir harakati mohiyatini so'z yordamida sharhlab borishi, Sinfida ko'r yoki yomon ko'radigan bola bo'lgan o'qituvchi ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, ular normal ko'radigan tengdoshlaridan farq qilishlarini yaxshi anglashi maqsadga muvofiqdir.

Yosh go'daklarda ba'zan ko'zga oid tug'ma nuqsonlar ham uchraydi: kriptoftalm - ko'z olmasi, qovoqlarining tug'ilish- dan rivojlanmay qolgani; mikrobefaron - ko'z qovoqlar kal- taligi tufayli ko'zning yumilmay turishi, koloboma - ko'z qovoqlarining nuqsoni va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday kamchiliklarning ko'pchiligini jarrohlik yo'li bilan davolab, ularni bartaraf etsa bo'ladi

Nazorat savollari

1. Ko'zi ojiz bolalar tavsifnomasi
2. Tiflopedagogikada bolalar guruhlari
3. Ko'rish nuqsonlarining kelib chiqish sabablari
4. Anolizatorlarida kamchiligi bor bolalar

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Ko'rish nuqsonlarining kelib chiqish sabablarini aniqlang.
2. Ko'rish nuqsonlari bor bolalarning tasnifnomasi.
3. Ko'rish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan differentsial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish yo'llarini ayting.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
2. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.
3. Filicheva T.B., Volkova L.S. Logopediya. T., "O'qituvchi". 1993.

5- MAB3Y: ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR

Reja

1. Eshitish nuqsonlarining kelib chiqish sabablari. Eshitish nuqsonlari bor bolalarning tasnifnomasi
2. Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan differentsial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Zaif eshituvchi bolalar, surdopedagogika, reabilitatsiya ishlari

1-savol bayoni

Eshitish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish. Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadilar. Eshitish – borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, inson (tirik jonzod)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish eshitish organi yoki tovush analizatori (tovush ta'sirini qabul qiluvchi va ajratuvchi murakkab nerv tizimi) yordamida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko'p hollarda muddatli bo'ladi. Masalan, o'rta qulog'ning tashkil topishi, shamollash, oltinugurt to'siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o'rta qulog'ining anomal tuzilishi (quloq suprasining bo'lmasligi yoki etarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo'llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda. Zamonaviy meditsina ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba'zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi.

Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: nasliy, tug'ma va kelib chiqqan tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko'rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og'irishi (qizamiq, kor, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglayidagi yoriq), chala tug'ilish, kichik vaznli tug'ilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug'ilishi kabilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Karlikning nasliy o'tishi holati juda kam kuzatiladi.

Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) eshitish qobiliyatining zararlanganlik darajasi;
- 2) eshitish qobiliyati zararlanganda nutqiy rivojlanish darajasi;
- 3) eshitish qobiliyatida buzilishning yuzaga kelish vaqti.

Yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra eshitish qobiliyatining buzilishi qulog'i og'irlik va karlik kabi guruhlarga ajratiladi.

Karlik bu eshitish qobiliyatining qattiq yo'qotilishi bo'lib, bola mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi va qulog'iga juda yaqin masofadan gapirilganda ham aniq eshitmaydi. Ammo baland tovushlar, yaqin masofadan nutqning ba'zi tovushlarini qabul qilishga imkon beruvchi eshitish qobiliyati saqlanib qoladi.

Qulog'i og'irlik – bu eshitish qobiliyatining qattiq pasayishi (80 detsibaldan kam) bo'lib, eshitish qobiliyati qoldig'i yordamida qulog'i oldida baland ovoz bilan gapirilganda bola nutqni eshita oladi. Bola minimal nutq boyligini mustaqil ravishda egallay oladi.

Karlar va qulog'i og'irlik (yomon eshituvchilar) nutqni qabul qilish usuli bo'yicha farq qiladilar. Karlar so'z nutqini ko'rib (suhbatdoshining lablari va yuziga qarab) va eshitib ko'rish (tovushni kuchaytirish apparati yordamida) qabul qiladilar.

Yomon eshitadiganlar atrofdagilar bilan tabiiy munosabatlar jarayonida baland ohangda so'zlashish asosida nutqni eshitib qabul qiladilar.

Nazorat savollari

1. Eshitishda nuqsoni bor bolalar.
2. Eshitish nuqsonlari bor bolalarning tavsifnomasi
3. Korreksiya va kompensatsiya nima?
4. Surdopedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

2-savol bayoni

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug'ullanadi. Surdopedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Eshitish analizatorining normal ishlashi bolaning umumiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitish analizatori buzilganda bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, idrok etish faoliyati, umumiy rivojlanishi ortda qoladi. Statistik ma'lumotlariga qaraganda eshitish organi funktsiyasi buzilgan va eshitmaydigan bolalar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.

Ayni vaqtda surdopedagogika oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko'ra ularni o'qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o'rganish;

- eshitish qobiliyati buzilgan turli kategoriyadagi bolalar uchun maxsus ta'lim mazmunini ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy amalga oshirish;

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni o'qitishning didaktik va maxsus metodikalarini yaratish;

- qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus ta'lim texnologiyalarini yaratish, pedagogik sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va boshqalar.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida eshitish qobiliyati bir oz pasaygan bolalar o'qishi mumkin. O'qituvchi bola tomonidan darsda bildirilayotgan fikrlarni yaxshi eshita olishiga e'tibor berishi, buning uchun bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo'lsa o'rta qatorga o'tkazish kerak. Shuningdek, o'qituvchi bola uning gaplarini to'g'ri tushuna olganligi, topshiriqni to'g'ri bajarayotganligini nazorat qilib turishi kerak. Ba'zida eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bolalar ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o'qiydilar.

O'qituvchi eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bola sinfga qabul qilinganda ularning psixofiziologik hamda nutq rivojlanishi xususiyatlarini bilishi talab etiladi.

Nazorat savollari

1. Surdopedagogikaning maqsad va vazifalari
2. Analizatorlarida kamchiligi bor bolalar
3. O'zbekitsonda yordamga muhtoj bolalar uchun maxsus maktablarning tashkil etilishi
4. Anomal bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Eshitish nuqsonlarining kelib chiqish sabablarini aniqlang.
2. Eshitish nuqsonlari bor bolalarning tasnifnomasi.
3. Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan differentsial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish yo'llarini aytng.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T., 1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
2. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.
3. Filicheva T.B., Volkova L.S. Logopediya. T., "O'qituvchi". 1993.

6- MABZU: AQLI ZAIF BOLALAR, ULARNING DARAJALARI, TA'RIFI

Reja

1. Oligofreniyaning darajalari. Debil bolalarning tavsifnomasi.
2. Oligofreniyaning kelib chiqish sabablari. Oligofren bolalarga yordamni tashkil etish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

oligofren bola, debil, reabilitatsiya ishlari, aqlan zaif, dementsiya

1-savol bayoni

Oligofreniya yunoncha oligos — kam, oz fren — aql so'zlaridan olingan bo'lib, esi past, aqli past demakdir. Oligofren bolalar markaziy nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati pasayib ketishi va bu nuqsonlar umrbod saqlanib kolish bilan boshqa anomal bolalardan farq qiladilar.

Amaliyotda "aqlan zaif", "oligofren", "dementsiya" degan atamalar ko'p ishlatiladi "Aqlan zaiflik" — bu yig'ma tushuncha bo'lib, aqliy jihatdan qoloqlikning sodir bo'lgan vaqti, boshidan kechirilgan kasallikning xarakteri, patologik o'zgarishlarning o'tishi darajasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'zda tutadi.

Aqliy qoloqlikni belgilashda klinik, psixologik va pedagogik mezonlarni tafovut qilmoq kerak.

Klinik mezon — aqliy qoloqlik va bu markaziy nerv sistemasining qanday organik kasalliklarga aloqadorligini

Psixologik mezon — bilish faoliyatining turg'un buzilganligini

Pedagogik mezon --- O'zlashtirish qobiliyati past bo'lib, bolaning dastur materiallarini o'zlashtira olmasligini ifodalaydi

Kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma hamda orttirilgan bo'lishi mumkin. Onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar — og'ir virusli gripp, tif, qizilcha bilan kasallanishi, ona organizmidagi turli parazitlarning homilaga yuh'ishi, homilaning shikastlanishi, otaonalarning atkogolizmi ham oligofreniyaga sabab bo'lishi mumkin. Oligofreniya bola uch yoshgacha bylgan davr ichida turli xil ogir kasalliklar bilan kasallanishi (meningit, meningoentsefalit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi) natijasida ham vujudga keladi.

Oligofreniya bola uch yoshgacha bylgan davr ichida turli xil ogir kasalliklar bilan kasallanishi (meningit, meningoentsefalit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi) natijasida ham vujudga keladi.

Rezus faktorning to'g'ri kelmasligi, xromosom kasalliklari, fenilketonuriya va shu kabilar tug'ma oligofreniyaga olib kelishi mumkin. Oligofreniyaning Daun kasalligi deb ataladigan bir turi xromosomalar nisbatining buzilishi natijasida 46 ta yoki 23 juft xromosoma yrniga bitta ortiqcha xromosomaning vujudga kelishi natijasida paydo bo'ladi.

Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablari. Aqli zaiflikni o'rganish bilan bog'liq masalalar korreksion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi - oligofrenopedagogika tomonidan o'rganiladi. "Oligofreniya" (yunoncha olygos – kam va phren - aql) termini XIX asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo'llanilgan.

Oligofreniya – bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmos) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni is'temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ona qorinidaligi miyasi shikastlangan bolalar.

2. Tug'ilishi paytida yoki tug'ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994 yilda aqli zaiflikning quyidagi to'rt darajasini e'tirof etgan: sezilmas (kam), o'rtacha, og'ir va chuqur darajalar.

Kam darajadagi aqli zaiflik o'quvchilar maktabni bitirish davrida o'zlarining psixometrik va klinik namoyon bo'lishi bilan normal rivojlanayotgan odamlardan kam farq qiladilar hamda muvaffaqiyat bilan ishga joylashadilar.

Aqli zaiflik tuzatib bo'lmaydigan hodisa sifatida e'tirof etilsa ham, uni korreksiya qilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatmaydi. Aksariyat tadqiqotlarda maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarida metodik jihatdan to'g'ri yo'l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda

Nazorat savollari

1. Oligofren bolalar deb qanday bolalarni aytamiz?
2. Oligofreniyaning kelib chiqish sabablari nimada?
3. Oligofreniyaning darajalarini aytib o'zing.
4. Debil bolalarning rivojlanish xususiyatlarini ta'riflab bering.

2-savol bayoni

Frantsuz olimlari alkogolizmga giriftor oilalarda tug'ilgan 57 nafar bolani uzoq muddat kuzatib borib, ularning 25 nafari 1 yoshga tilmadan nobud bo'lganini, 5 nafari tutqanoq, 5 nafari gidrotsefaliya (bosh miya istisnosi) kasalligi bilan og'riganini, 12 nafari aklan zaif bo'lgani va faqat 10 nafar bola sog'lom chiqqanini aniqlagan.

Oligofreniya bola markaziy nerv sistemasining ona qornidaligi davrida, tug'ilish vaqtida va tug'ilgandan to'uch yoshgacha bo'lgan davr ichida shikastlanishi, kasallanishi natijasida kelib chiqadi. Agarda turli sabablarga ko'ra aqlan zaiflik bolaning uch yoshidan keyingi davrida paydo bo'lsa, buni endi orttirilgan aqliy zaiflik dementsiya deb yuritiladi. Demetsiya progressiv, ya'ni tabiatan kuchayib boradigan bo'ladi. Oligofreniyada esa nuqsonning kuchayib borishi kuzatilmaydi.

Aqliy (intellektual) rivojlanishiga ko'ra oligofreniya uch darajada namoyon bo'ladi:

Debillik- aqli pastlik oligofreniyaning ent engil darajasi bo'lib, bunday bolalarni tashqi ko'rinishiga qarab sog'lom tengdoshlaridan ajratib bo'lmaydi. Ular ko'pincha o'qishni ommaviy maktabning birinchi sinfidan boshlaydilar, lekin Qisqa muddat ichida ulgurmovchi o'quvchilar orasiga qo'shilib qoladilar. Umuman, zehn va fahm-farosatga bog'liq ishlarda debil bolalar ancha qiynaladi, biroq ular yordamchi maktabga o'tib, dasturini o'zlashtirib chiqishsa, sanoat hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida, maishiy xizmat sohasida oddiy turdagi mehnat bilan shug'ullana oladi.

Imbetsillik-bolalar xattoki yordamchi maktab dasturi bo'yicha xam ta'lim olish qurbiga qodir emaslar. Ular ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshidagi bolalar internatlarida tarbiyalanadilar. Ammo umumiy rivojlanishida kamroq orqada qolgan imbetsil bolalar, afsuski, yordamchi maktablarda goho uchrab turishadi. Ular yordamchi maktab dasturini yzlashtira olmaydilar.

Idiotiya -bolalar hattoki o'z otaonalarini ham tanimaydi. Ular o'zini o'zi uddalay olmaydi, o'ziga o'zi xizmat xam qila olmaydi. Imbetsil bolalar idiot bolalarga qaraganda nisbatan tuzukroq rivojlangan bo'lsa xam, mustaqil xayot kechirolmaydi. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza kilish vazirligi qoshidagi muassasalarda ularga sodda bilimlar, mehnatning ayrim sodda turlari o'rgatiladi

Debil bolalar uchun bir kator fahm-farosatga oid harakatlar etishmasligi xarakterlidir. Ularning kuzatish, taqqoslash, idrok qilayotgan narsalarning, voqeahodisalarning muhim tomonlarini ajratib ko'rsatish, bular o'rtasidagi eng oddiy sababnatija bog'lanishlarini fahmlab olish qobiliyatli rivojlanmay qoladi. Debil, bolaning tafakkuri, diqqati, sezgi va idroklari, xotirasi, analiz va sintez qilish qobiliyatli ham yaxshi rivojlanmagan bo'ladi

Oligofreniyaning uchala darajasida ham tarbiyachi va o'qituvchilar oligofren o'quvchilarni sog'lom teshdoshlari hamda o'xshash tarzda boshka kamchiliklari bor bolalardan ajrata olishlari lozim. Lekin oligofreniyaning eng engil darajasini—debillikni boshka o'xshash anomaliyalardan va sog'lom bolalardan ajratib olish amalda ancha qiyin bo'ladi.

Oligofren bolalar vaziyatni etarli darajada anglay olmaydilar, xatti harakatlarni vaziyatga qarab, adekvat o'zgartira olmaydilar. Ularda o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo'ladi. Yuqorida kyrsatilgan bir qator kamchiliklarga qaramay, oligofren bolalar bilan to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lim tarbiya ishlari natijasida defektologlar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, hunarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Maxsus yordamchi mehnat maktablarida ta'limtarbiya olib chiqqan debil bolalar

hayotda o'z o'rnini topib, sanoat hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning turli sohalarida, maishiy xizmat soxasida faol mehnat qilib yashamoqdalar.

Nazorat savollari

1. Oligofreniyaning darajalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Debil bolalarning tavsifnomasini tushuntiring.
3. Oligofreniyaning kelib chiqish sabablarini bilasizmi?
4. Oligofren bolalarga qanday yordam tashkil etish mumkin?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Oligofreniyaning darajalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Debil bolalarning tavsifnomasini tushuntiring.
3. Oligofreniyaning kelib chiqish sabablarini bilasizmi?
4. Oligofren bolalarga qanday yordam tashkil etish mumkin?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
2. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.
3. Filicheva T.B., Volkova L.S. Logopediya. T., “O'qituvchi”. 1993.

7- MAVZU: PSIXIK RIVOJLANISHI ORQADA QOLGAN BOLALAR

Reja

1. Ruhan sust rivojlangan bolalar guruhlari
2. Ruhan sust rivojlanganlikni psixologik-pedagogika jixatdan turlari
3. Ruhan sust rivojlangan bolalar tavsifnomasi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

1-savol bayoni

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati intellekti, mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlariga birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari va pedagogik qarovsizlik, oilaviy mojaro, noto'g'ri tarbiya ko'shilishi natijasida psixik rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda borasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy zaiflik esa ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy, T.V.Egorova, K.S.Lebedinskaya, N.A.Nikashina, K.K.Mamedov, B.Shoumarov, N.A.Tsipina, RD.Triger va boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra boshlangich sinf o'quvchilarining 5, 8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi.

Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak tomir kasalliklari sabab bo'lishi mumkin.

Ilk yoshda har xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o'sib unmay qolish mumkin, bu esa o'z navbatida Psixik jihatdan rivojlanishida orqada qolishga, kechikishga olib keladi, sust rivojlanganlikning somatik shakli deb shunga aytiladi.

Psixik sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan nokulay, nogo'g'ri sharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy tomonlari Psixik rivojlanishiga ta'sir o'tkazgan bo'ladi.

Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasi jihatidan asosan ikki guruhga bo'linadi:

1. Yengil nuqsoni bor bolalar — bular maxsus sharoitda 1—3 yil ta'lim tarbiya olganlaridan keyin o'qishni ommaviy maktabning tegishli sinfidagi davom ettirishi mumkin.
2. Psixik rivojlanishi sezilarli darajada orqada qolgan bolalar — ular maktabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi kerak. Bunday bolalar maktab dasturini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtira olmaydi. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarni ommaviy maktabda hamma qatori o'qitish ta'lim jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi

Psixik sust rivojlanganlikning eng murakkab va keng tarkalgan psixogen shaklida bosh miyaning kasalligiga, yaxshi etilmaganiga aloqador o'zgarishlar **kuzatiladi**. Olimlarimizning bergan ma'lumotlariga ko'ra, bunday bolalarning 50 foizida nerv sistemasida organik nuqsonlar bo'ladi. Bu narsa ularning histuygu, irodaviy holatlari **tarakqiy** etmaganligiga, asosan organik infantilizm tarzida namoyon bo'ladi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korreksion ishlar olib borishning xususiyatlari. O'zbekistonda XX asrning 60-yillarida ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun maktab internatlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o'qitishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Boshlang'ich umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati – 4-5 yil).
2. Asosiy umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati - 5 yil).

Nazorat savollari

1. Bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun shart-sharoitlar
2. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari
3. Oligofrenopedagogikaning maqsad va vazifalari
4. Oligofrenopedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

2-savol bayoni

Bolalarni korreksion muassasalarga qabul qilish PTPKning xulosasi bo'yicha ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligiga ko'ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o'quvchidan iborat bo'ladi. Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaf etilishiga ko'ra ommaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'tkazilishlari mumkin.

Ikkinchi bosqichda ta'lim (V-IX sinflar) ayrim o'zgartirishlar (muayyan o'quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda, ta'limning 1-bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki hatto 2 yilga uzaytirilishi mumkin.

Ular bilan ishlashda asosiy vazifa - bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o'quv faoliyati tajribasini hosil qilish, mustaqil ravishda, bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o'quvchilar individual yondashishni talab etadilar. Ularni korreksion o'qitish davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan birga amalga oshirilishi zarur. O'quv materiali hamda ta'lim metodi PROQ bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar. Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning olidini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish juda muhimdir.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yasliqlarida tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ommaviy bolalar bog'chalaridagi maxsus guruhlariga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o'qitish maxsus bolalar bog'chasidagi kabi maxsus dastur bo'yicha olib boriladi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o'qitiladilar, bu erda o'qitish davlat ta'lim standarti asosida maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o'rta ta'lim fanlari (ona tili, o'qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, fizkultura, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlarni ham o'qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi muhim o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi IV sinfdayoq professional xususiyatga ega bo'lib, bolalar o'zlari bajara oladigan kasbni o'zlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo'lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarini tarbiyalash, atrofdegilar va o'zlariga to'g'ri baho berishga o'rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi.

1. Psixik rivojlanishi sust bolalar boshqa anomal bolalardan nima bilan farq qiladi?
2. Psixik rivojlanishi sust bolalarning qaysi guruhlari mavjud?
3. Psixik rivojlanishdagi sustlik nimadan kelib chikadi?
4. Psixik rivojlanishi sust bolalar kaerda ta'lim olishlari kerak va nima учун?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. Ruhan sust rivojlangan bolalar guruhlarini ayting.
2. Ruhan sust rivojlanganlikni psixologik-pedagogik jihatdan turlarini bilasizmi?
3. Ruhan sust rivojlangan bolalar tavsifnomasi.
4. Ruhan sust rivojlanishning kelib chiqish sabablari?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
2. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.
3. Filicheva T.B., Volkova L.S. Logopediya. T., "O'qituvchi". 1993.

DEFEKTOLOGIYA ASOSLARI FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR ISHLANMALARI

1 - Amaliy mashg'ulot

Mashg'ulot mavzusi: Defektologiya fani, uning predmeti, maqsadi

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarda defektologiya fani, uning predmeti, maqsadi, vazifalari, metodlari va usullari xaqida amaliy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy tushunchalar: Korreksion pedagogika, Defektologiya

Kerakli jihoz va materiallar: daftar, kitoblar, tarqatma materiallar, marker, plakatlar

Ishni bajarish tartibi:

Defektologiya fani bu jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning psixofizologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan. "Defektologiya" so'zi lotin tilida defektus-nuqson, kamchilik, logos-ta'limot, o'rganish degan ma'nolarni anglatadi. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha "odatdan tashqari, noraso" degan ma'noni bildiruvchi anomal so'zidan olingan). Hozirgi kunda chet davlatlarda bu bolalar maxsus yordamga muhtoj bolalar deb xam yuritiladi. Defektologiya fanining mavzui baxsi anomal bolalardir.

Defektologiya faninig vazifasi – anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlari, anomal bolalarning psixofizologik rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganish, shular asosida differensial va integrasilashgan ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim- tarbiyasi bilan shug'ullanishdir. Defektologiya fanining maqsadi-anomal bolalar bilan differetsial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, kompensatsiyalash, iloji boricha korrektsiyalash, tuzatish, ko'zga ko'rinmaydigan darajagacha kamaytirish yo'llari, usullarini belgilash va amaliyotga tadbiiq etish yo'l, usullarini tarbiyachi va o'qituvchilarga ko'rsatib berishdir.

Nazorat savollari

- 1) Rivojlanishi va xulqida chetlanishlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan qaysi fan shug'ullanadi?
- 2) Korreksion pedagogikaning vazifasi nimadan iborat?
- 3) "Korreksiya". "korreksion pedagogik faoliyat" tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?

TMI topshirig'i: rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlang

differentatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;

anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

2 - Amaliy mashg'ulot

Mashg'ulot mavzusi: Zaif ko'ruvchi bolalar maktab internatlarida ta'lim-tarbiya jarayoni

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarda alohida yordamga muxtoj bolalar toifalari xakida amaliy bilimlarni

berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy tushunchalar: Ko'zi ojiz bolalar uchun tashkil qilingan ta'lim-tarbiya muassasalari

Kerakli jihoz va materiallar: daftar, kitoblar, tarqatma materiallar, marker, plakatlar

Ishni bajarish tartibi:

Ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Ko'rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlarini. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflopedagogika shug'ullanadi (yunoncha «typhlos» – ko'r) – korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko'rish – ko'rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko'rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Bolaning ko'rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bolalarda ko'rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qorinida rivojlanayotganda ko'rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og'ir kasalliklar bilan og'rishi va hokazo omillardan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma ko'r bo'lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko'rish nuqsonlarining yuzaga kelishida nasliylilik ham kyzga tashlanadi.

Orttirilgan ko'rlik odatda ko'rish organlari – to'r pardasi, shoh parda yoki markaziy nerv tizimining kasallanishi (meningit, miya shishi, meningoentsifalit), organizmning umumiy kasallanishidan keyingi asoratlari (kor, gripp, skorlatina), shuningdek, miya yoki ko'zning jarohatli shikastlanishi (boshi yaralanishi, shikastlanishi) oqibatida bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?
2. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?

TMI topshirig'i: ko'rish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, ko'rishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko'ra ularni o'qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o'rganish

3- Amaliy mashg'ulot

Mashg'ulot mavzusi: Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayoni, uning o'ziga xosligi

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarda alohida yordamga muxtoj bolalar toifalari xakida amaliy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy tushunchalar: Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan differentsial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish

Kerakli jihoz va materiallar: daftar, kitoblar, tarqatma materiallar, marker, plakatlar

Ishni bajarish tartibi:

Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktab gacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda so'zlashuv (og'zaki yozma) nutqni shakllantirish yuzasidan dars va mashg'ulotlarda muayyan tizimdagi mashqlar asosida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati tashkil etiladi, didaktik vositalarning barcha turlarini nutqi; jarayonga moslay olish talab etiladi.

Nutqiy materiallarning amaliy egallanishini ta'minlash uchun maxsus sodir etilgan muammoli nutqqa (gapirish, yozib tushuntirishga) ehtiyojni tug'diruvchi vaziyatlar oldindan rejalashtiriladi.

Bunda nutqiy materiallar fanlar bo'yicha o'quv dasturlarida, rejalashtirishlarda oldindan belgilangan bo'ladi, ya'ni korreksion-pedagogik jarayon muayyan tizim asosida amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?
2. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?

TMI topshirig'i: eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko'ra ularni o'qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o'rganish

4- Amaliy mashg'ulot

Mashg'ulot mavzusi: Tug'ma hamda orttirilgan oligofreniya

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarda alohida yordamga muxtoj bolalar toifalari xakida amaliy bilimlarni

berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy tushunchalar: Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari

Kerakli jihoz va materiallar: daftar, kitoblar, tarqatma materiallar, marker, plakatlar

Ishni bajarish tartibi:

Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablari. Aqli zaiflikni o'rganish bilan bog'liq masalalar korreksion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi - oligofrenopedagogika tomonidan o'rganiladi. "Oligofreniya" (yunoncha olygos – kam va phren - aql) termini XIX asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo'llanilgan.

Oligofreniya – bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmos) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni is'temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

Ona qorinidaligi miyasi shikastlangan bolalar.

Tug'ilishi paytida yoki tug'ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994 yilda aqli zaiflikning quyidagi to'rt darajasini e'tirof etgan: sezilmas (kam), o'rtacha, og'ir va chuqur darajalar.

Nazorat savollari

1. Ommaviy umumiy o'рта ta'lim maktablarida eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?
2. Ommaviy umumiy o'рта ta'lim maktablarida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?

TMI topshirig'i: Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablarini aniqlash

5- Amaliy mashg'ulot

Mashg'ulot mavzusi: Oligofren bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim- tarbiya jarayoni

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarda alohida yordamga muxtoj bolalar toifalari xakida amaliy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy tushunchalar: Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari

Kerakli jihoz va materiallar: daftar, kitoblar, tarqatma materiallar, marker, plakatlar

Ishni bajarish tartibi:

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o'qitiladilar, bu yerda o'qitish davlat ta'lim standarti asosida maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o'рта ta'lim fanlari (ona tili, o'qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, fizkultura, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlarni ham o'qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi muhim o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi IV sinfdayoq professional xususiyatga ega bo'lib, bolalar o'zlari bajara oladigan kasbni yzlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo'lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarini tarbiyalash, atrof-dagilar va o'zlariga to'g'ri baho berishga o'rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmos) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni is'temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Rivojlanishi va xulqida chetlanishlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan qaysi fan shug'ullanadi?
2. Ommaviy umumiy o'рта ta'lim maktablarida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?

TMI topshirig'i: Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablarini aniqlash

6- Amaliy mashg'ulot

Mashg'ulot mavzusi: Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalar

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarda alohida yordamga muxtoj bolalar toifalari xakida amaliy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarda alohida yordamga muxtoj bolalar toifalari xakida amaliy bilimlarni berish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy tushunchalar: Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari

Kerakli jihoz va materiallar: daftar, kitoblar, tarqatma materiallar, marker, plakatlar

Ishni bajarish tartibi:

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o'qitiladilar, bu yerda o'qitish davlat ta'lim standarti asosida maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o'rta ta'lim fanlari (ona tili, o'qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, fizikultura, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlarni ham o'qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi muhim o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi IV sinfdayoq professional xususiyatga ega bo'lib, bolalar o'zlari bajara oladigan kasbni yzlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo'lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarini tarbiyalash, atrof-dagilar va o'zlariga to'g'ri baho berishga o'rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmos) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni is'temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Rivojlanishi va xulqida chetlanishlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan qaysi fan shug'ullanadi?
2. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?

TMI topshirig'i: Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablarini aniqlash

DEFEKTOLOGIYA ASOSLARI FANIDAN SEMINAR MASHG'ULOTLAR ISHLANMALARI

1- Seminar mashg'ulot

Mavzu: «Zaif ko'ruvchi bolalar maktab internatlarida ta'lim–tarbiya jarayoni».

Reja:

- Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar guruhlari.
- Ko'rish nuqsonlarining kelib chiqish sabablari.
- Ko'zi ojiz bolalarning tavsifnomasi
- Ko'zi ojiz bolalar uchun tashkil qilingan ta'lim-tarbiya muassasalari.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
- 2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
- 3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
- 4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

2- Seminar mashg'ulot

Mavzu: «Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayoni, uning o'ziga xosligi».

Reja:

- 1. Nutqning hosil bo'lish mexanizmlari.
- 2. Eshitish nuqsonlarining kelib chiqish sabablari.
- 3. Eshitish nuqsonlari bor bolalarning tasnifnomasi
- 4. Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bilan differentsial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
- 2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
- 3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
- 4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

3- Seminar mashg'ulot

Mavzu: «Oligofren bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayoni».

Reja:

- 1. Oligofreniyaning darajalari.
- 2. Debil bolalarning tavsifnomasi.
- 3. Oligofreniyaning kelib chiqish sabablari
- 4. Oligofren bolalarga yordamni tashkil etish.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
- 2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
- 3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
- 4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

4- Seminar mashg'ulot

Mavzu: «Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiyaning o'ziga xosligi».

Reja:

- 1. Ruhan sust rivojlangan bolalar guruhlari
- 2. Ruhan sust rivojlanganlikni psixologik-pedagogik jihatdan turlari
- 3. Ruhan sust rivojlangan bolalar tavsifnomasi.
- 4. Ruhan sust rivojlanishning kelib chiqish sabablari
- 5. Ruhan sust rivojlangan bolalar uchun tashkil etilgan o'quv muassasalari

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
- 2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
- 3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
- 4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.

MUSTAQIL TA'LIM BO'YICHA MATERIALLAR (MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI)

1. Defektologiya fani, uning maqsad va vazifalari.
2. Alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi.
3. Oligrofen bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayoni.
4. Tibbiy –pedagogik komissiya faoliyati.
5. Zaif ko'ruvchi bolalar maktab- internatida ta'lim-tarbiya jarayoni.
6. Bolaning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarning kelib chiqish sababalari
7. Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayoni, uning o'ziga xosligi.
8. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar uchun tashkil etilgin muassasalar va ulardagi ishlarning olib borilishi.
9. Maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xosligi
10. Nutqiy nuqsonli bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayoni.
11. Bolaning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar to'liq bartaraf etish, korrektsiya, kompensatsiya ishlari.
12. Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun tashkil etilgan muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xosligi.
13. Maxsus pedagogika fanidan differentsial va integratsiyalashgan ta'lim.
14. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi faoliyati.

Tavsiya qilingan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014

GLOSSARIY

Atamaning nomlanishi		Atamaning ma'nosi
O'zbek tilida	Rus tilida	
Defektologiya	Дефектология	nuqson
Dislaliya	Дислалия	Nutq kamchiligi
Maktabgacha ta'limda anomal bolalar tarbiyasi	Дошкольное воспитание аномальных детей	Maktabgacha ta'limda anomal bolalar tarbiyalash
Eshitish moslamasi	Адаптация слуховая	Eshitish uchun moslashuvchanlik
Amneziya	Амнезия	Xotira nuqsoni
Afaziya	Афазия	Bosh miyaning shikastlanishi
Autizm	Аутизм	O'zining olamida qolish
A.... Я		

TEST SAVOLLARI

1. Defektologiya qaysi tildan olingan?
 - a) lotin
 - b) yunon
 - v) ingliz
 - g) frantsuz
2. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bor bolalar bolalar deyiladi.
 - a) ruhiy hasta
 - b) nuqsonli
 - v) anomal
 - g) yaroqsiz
3. Anomal so'zining ma'nosi?
 - a) kamqonlik
 - b) esi past
 - v) ko'zi ojiz
 - g) odatdan tashqari, narsa
4. Eshitish qobiliyati zaif bolalar qanday nutq orqali gaplashadilar?
 - a) brayl
 - b) daktil
 - v) imo-ishora bilan
 - g) b va v javob to'g'ri
5. O'zbekistonda defektologiya fanining rivojlanishi qachondan boshlab tezlashdi?
 - a) 1967 yildan
 - b) 1964 yildan
 - v) 1972 yildan
 - g) 1984 yildan
6. Oligofrenopedagogika kafedrasini qachon o'z faoliyatini boshladi?
 - a) 1969 y.
 - b) 1970
 - v) 1971 y.
 - g) 1972 y.
7. 1983 yilda qanday bo'lim qo'shildi?
 - a) tiflopedagogika
 - b) surdopedagogika
 - v) oligofrenopedagogika
 - g) logopediya
8. Defektologiyadan nechta tarmoq ajralib chiqdi?
 - a) 2 ta
 - b) 3 ta
 - v) 4 ta
 - g) 5 ta
9. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya bilan defektologiyani qaysi tarmog'i shug'ullanadi?
 - a) surdopedagogika
 - b) tiflopedagogika
 - v) oligofrenopedagogika
 - g) logopediya
10. Defektologiyada anomal bolalar nechta toifalarga bo'linadi?
 - a) 5 ta
 - b) 6ta
 - v) 7 ta
 - g) 8 ta
11. Asfiktsiya nima?
 - a) miya shikastlanishi
 - b) bolaning tug'ruq yo'llaridan uzoq o'tishi
 - v) bolaga irsiy omillarning ta'siri
 - g) bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi
12. Surdopedagogikada eshitishda nuqsoni bor bolalar nechta guruhga bo'lib o'rganiladi?
 - a) ikki

- b) uch
 - v) to'rt
 - g) besh
13. Kar-soqov bolalarning necha foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi?
- a) 25-30 %
 - b) 30-35 %
 - v) 45-50 %
 - g) 60-70 %
14. Total ko'rlik nima?
- a) tug'ma ko'r
 - b) korreksiya qo'llanganda tuzatish mumkin bo'lgan ko'rlik
 - v) ko'rish qobiliyati keskin kamaygan
 - g) orttirilgan ko'rish anomaliyalari
15. Zaif ko'ruvchi bolalarda ko'rish o'tkirligi qanday bo'ladi?
- a) 0,04 dan to 0,1 gacha
 - b) 0,03 dan to 0,3 gacha
 - v) 0,05 dan to 0,4 gacha
 - g) 0,01 dan to 0,5 gacha
16. Ayol qandiy kasalliklar bilan og'riganda undan tug'ma, ko'rish nuqsoni bor bola dunyoga keladi?
- a) taksoplazmoz, qizilcha
 - b) traxoma, chechak
 - v) suzak, ko'z sili
 - g) qizamiq, skariatina
17. Nutq sur'ati, tempi, ritmi rivojlanishining buzilishiga quyidagilarning qaysilari kiradi?
- a) dislaliya, rinolaliya, dizartriya
 - b) anortriya, afoniya, disfoniya
 - v) taxilaliya, bradilaliya, logonevroz
 - g) fonosteniya, rinofaniya, alaliya
18. Ruhan sust rivojlangan bolalar aqliy darajasi jihatidan necha guruhga bo'linadi?
- a) ikki
 - b) uch
 - v) to'rt
 - g) besh
19. Quyidagilardan qaysilari yozma nutq nuqsonlari hisoblanadi?
- a) agrofiya, alektsiya
 - b) disgrafiya, dislektsiya
 - v) taxamliya, bradilaliya
 - g) a va b javoblar to'g'ri
20. Surdopedagogika qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?
- a) lotincha «kar»
 - b) yunoncha «ko'r»
 - v) yunoncha «naroso»
 - g) frantsuzcha «gung»
21. Ruhiy sust rivojlangan bolalar klinik-psixologik jihatdan necha turga bo'linadi?
- a) uch
 - b) to'rt
 - v) ikki
 - g) besh
22. Oligofreniya so'zining ma'nosi
- a) «odatdan tashqari»
 - b) «yordamga muhtoj»
 - v) «esi past»
 - g) «so'z tarbiyasi»
23. Oligofreniyaning eng engil darajasini ko'rsating.
- a) debil
 - b) imbetsil
 - v) idiot
 - g) psixogen
24. Imbetsil va idiot bolalar maxsus maktab-internatlarida necha yoshgacha tarbiyalanadi?

- a) o'n besh
 - b) o'n olti
 - v) o'n etti
 - g) o'n sakkiz
25. Tana yoki tana qismlari harakatini sezish deyiladi.
- a) proprioretseptor
 - b) kenesteziya
 - v) spastik diplegiya
 - g) giperkinez
26. Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar nechanchi guruh nogironlari hisoblanadi?
27. Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarni ishga joylashtirish qanday mussasalar zimmasiga yuklatiladi?
- a) sog'liqni saqlash muassasasiga
 - b) ijtimoiy ta'minot bo'limiga
 - v) mahalla qo'mitasiga
 - g) maxsus maktab-internat pedagogik kengashiga
28. Dunyo aholisining necha foizini nogironlar tashkil qiladi?
- a) 5 %ni
 - b) 6 %ni
 - v) 10 %ni
 - g) 20 %ni
29. Nutqning to'g'ri tarkib topishi nimalarga bog'liq?
- a) nutqiy tajribaga
 - b) atrofdagilar nutqiga
 - v) to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga
 - g) yuqoridagilarning barchasi to'g'ri
30. Logopediya so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

INFORMATSION - USLUBIY TA'MINOT

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T.,1998.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. T., 2014.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent-“O'zbekiston”-2016.56 B
2. Sh.Mirziyoyev.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-“O'zbekiston”-2016.488 B
3. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. Toshkent-“O'zbekiston”-2016.488 B
4. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent-“O'zbekiston”-2017.104 B
5. 2017-2021 yillarida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.O'zbekiston
6. David Carter. Literary Theory. Avocet Typeset, Chilton,Aylesbury, Bucks Printed England, 2006.
7. Renñ Wellek, Austin Warren. Theory of Literature. Penguin Books, 1993 - URL:
<http://www.twirpx.com/files/literature/theory/>

Elektron ta'lim resurslari

6. www.tdpu.uz
7. www.pedagog.uz
8. www.Zivonet.uz
9. www.edu.uz
10. [tdpu. INTRANET.uz](http://tdpu.INTRANET.uz)